

**AQLI ZAIF O'QUVCHILARDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOTGA  
KIRISHISH KO'NIKMALARINI TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH  
(BOSHLANG'ICH SINIF MISOLIDA)**

*Melibayeva Dilrabo Baxodirovna*

*Qo'qon universiteti*

*Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aqli zaif o'quvchilar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Aqli zaif o'quvchilarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishning samarali yo'llari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** aqli zaif o'quvchilar, nutqini rivojlantirish, nutq nuqsonlari, bartaraf etish, samarali yo'llar, maxsus pedagogika, maxsus maktab, logopediya.

**Аннотация:** В данной статье описаны особенности речевого развития учащихся с задержкой психического развития. Выявлены эффективные способы устранения дефектов речи у студентов с задержкой психического развития.

**Ключевые слова:** учащиеся с задержкой психического развития, речевое развитие, речевые дефекты, устранение, эффективные способы, специальная педагогика, специальная школа, логопед.

**Abstract:** This article describes the specific features of the speech development of students with mental retardation. Effective ways to eliminate speech defects in students with mental retardation have been revealed.

**Key words:** students with mental retardation, speech development, speech defects, elimination, effective ways, special pedagogy, special school, speech therapy.

Maxsus pedagogikaning muhim masalalaridan biri aqli zaif o'quvchilar nutqini rivojlantirish hisoblanadi. Chunki nutq inson hayotida juda katta rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan nutq avvaliga muomala vositasi sifatida, keyinchalik fikrlarni ifodalash va tafakkur quroli sifatida chiqadi, inson xulq-atvori va faoliyatini boshqaradi. Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining o'ziga xosligi oliy asab faoliyatining o'ziga xosliklari va ularning psixik rivojlanishi bilan aniqlanadi. S.Ya.Rubinshteynning fikricha, barcha analizatoridagi yangi differensial aloqaning miyada sekin ishlab chiqilishi va funktsiya qatlamlarining zaifligi aqli zaif bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganining asosiy sabablari hisoblanadi<sup>1</sup>. Nutq-eshitish analizator sohasidagi differensiyalovchi shartli aloqalarning sekin rivojlanishi natijasida aqli zaif bola uzoq muddat davomida nutq tovushlarini ajrata olmaydi, atrof-dagilar aytayotgan so'zlarni tushunmaydi, nutqni aniq-tiniq eshita olmaydi. Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishi dastlabki oylardanoq ortda qoladi. Natijada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar predmetlar bilan faoliyatga kirishish, fonematik eshituv, artikulyatsion apparat harakatchanligi va atrof-olamdagi voqea-hodisalarga qiziqishi etarli darajada shakllanmaydi, hissiyotlar to'liq namoyon bo'lmaydi, bularning barchasi nutq rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'tkazadi<sup>2</sup>. Nutq odamlarning eng muhim muomala vositasi hisoblanadi. Faqat insongina o'z hissiyotlari haqida so'zlash, fikrlarini bayon etish, qiziqarli axborotni etkazish, she'r o'qish va h.k. kabi imkoniyatlarga ega. Bunday o'zaro ta'sir natijasida aksta'sir va muloqotdan rohatlanish hissi yuzaga kelganda biz hamfikrlik, hamdardlik, o'zaro tushunish hissini boshdan kechiramiz. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini o'stirish uning keyingi

rivojlanishida va maktabda muvafaqqiyatli o‘qishida juda muhimdir. Nutqni yaxshi egallagan bola o‘z fikrlarini yaxshi bayon qila oladi, darsliklardagi materialni to‘liq tushuntirib, bayon qilib bera oladi. Nutqi maqsadga muvofiq tarzda rivojlangan bola o‘z fikrini mantiqiy ketma-ketlikda, asoslangan va o‘ziga nisbatan ishonch bilan bildira oladi. Nutq tizimining turli komponentlarining shakllanishi va rivojlanishining buzilishi nutqning umumiy rivojlanmaganligi deb ataladi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishning samarali uslublarini ishlab chiqish, shu jumladan, bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy logopediyaning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq nuqsonlariga ega aqli zaif bolalarni o‘z vaqtida aniqlash, mavjud og‘zaki nutq kamchiliklarini to‘g‘ri tasniflash va unga mos korreksion ta’limni tashkil etish bu bolalarda yozish va o‘qish kamchiliklari paydo bo‘lishining oldini olibgina qolmasdan, kelgusida dastur materialini o‘zlashtirishda ortda qolishga yo‘l qo‘ymaydi<sup>4</sup>. Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari – nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, til boyligi, faolligini oshirish, nutqning grammatik tomonini rivojlantirish, aloqa nutqini o‘qitish barcha maktabgacha yoshdagi muassasalarda hal qilinadi. Bolaning aloqa nutqini shakllantirish tilning grammatik tuzilishi, lug‘at tarkibi, tovush tomonini o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liqlikda kelib chiqadi. Ko‘p olimlar qatori L.S.Volkova, S.N.Shaxovskayaning ta’kidlashlaricha, aqli zaif bolalarda nutqning grammatik tomonlari shakllanmaganligi kuzatiladi. Bu agrammatizmlar (gaplarni tuzish yoki ularni tushunishda vujudga keladigan qiyinchiliklarda ifodalanadigan nutqning buzilishi) grammatik umumlashtirishlarni talab qiladigan ko‘pgina vazifalarni bajarishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo‘ladi. Bunda so‘z yasash va so‘z o‘zgartirishning morfologik shakllari, gapning sintaksis tarkibi yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. M.F.Fomichyova, Ye.M.Mastyukovalarning ishlarida bolalar nutqi grammatik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi<sup>1</sup>. Me’yorida rivojlanishda bola uch yoshga kelib og‘zaki nutqning barcha asosiy grammatik kategoriyalarini o‘zlashtiradi. U morfologik vositalardan foydalanib, so‘zlarni o‘zgartiradi, grammatik shakllantirilgan qisqa iboralar bilan gapiradi. Z.N.Smironova eksperimental ravishda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqning boshqaruvchilik funksiyasini qo‘pol buzilishining ko‘rinishlarini izohlab berib, 4–5 yoshga kelib ularda so‘zning faqatgina undovchi va faoliyatga tushiruvchi funksiyalarigina shakllanishi, u faqat harakatga undovchi sifatidagina yuzaga kelishini ko‘rsatib berdi<sup>2</sup>. Me’yorida rivojlanayotgan bolalarda esa bu funksiyalar ikki yoshligining oxiriga kelib shakllangan bo‘ladi. Maktabgacha aqli zaif bolalarda faoliyatni so‘z orqali boshqarish ta’lim jarayonisiz faqat eng boshlang‘ich, sodda shaklda vujudga keladi. Motorikaning buzilishi nutqdagi tovushlarning ixtiyoriy talaffuziga, shuningdek, so‘zlarning talaffuziga ta’sir qiladi, chunki talaffuz qilish uchun nutq a’zolari harakatining yuqori darajadagi koordinatsiyasi talab etiladi. Aqli zaiflikning yengil darajasidagi aqli zaif o‘quvchilar nutqidagi grammatik qurilishning buzilishlari masalasi omillari M.S.Gnezdilov, L.N.Efimepkova, I.N.Sadovnikova, O.L.Jilsova, M.P.Feofanov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Mualliflar tomonidan me’yorida rivojlanayotgan bolalarga qaraganda aqli zaif bolalar gaplardan ancha kech foydalana boshlashlari isbotlangan. M.F.Gnezdilovning ma’lumotiga ko‘ra, aqli zaif o‘quvchilar murakkab gaplardan avval yozma nutqda, keyinchalik esa og‘zaki nutqda foydalana boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi aqli zaif o‘quvchilarda ba’zi grammatik shakllarni tushunishning buzilishi masalalari Z.N.Smironovanning ishlarida yoritib berilgan<sup>3</sup>. Olim yordamchi maktabning 1–2- sinf va 3–4-sinf o‘quvchilarining ko‘pchiligi so‘zlarning grammatik o‘zgarishlarini tushunmasliklarini ko‘rsatdi. Muallif ko‘pchilik o‘quvchilarda so‘zning

leksik ma’nosi birligi va grammatik o’zgarishlarni tushunish shakllanmaganligini eksperimental tarzda isbotlab, bu nuqsonni bartaraf etishga yordam beradigan ba’zi usullarni tavsiya etadi. Istiqloqqa qadar respublikamizning aqli zaif bolalar ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiyaning maxsus muassasalari yoki O’zbekistondagi umumta’lim muassasalari uchun mo’ljallangan dastur va darsliklarni biroz o’zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Maxsus tizim amaliyoti tartibsiz ravishda tizimdagi ishning shu yo’nalish asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi.

Tabiiyki, bir tomondan til tizimining to’g’ri kelmasligi, ikkinchi tomondan, me’yorda rivojlanayotgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan dastur hamda darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitish qobiliyatida muammosi bo’lgan bolalar ta’lim muassasalari oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi. Respublikamizda maxsus pedagogikaning ilmiy asoslanishi o’tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikada (kar va eshitish qobiliyati zaif kishilar ta’lim olishidagi muammolarni o’rganuvchi fan) olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo’lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta’lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o’zbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yo’l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo’naltirildi. Maxsus pedagogika sohasidagi D.A.Nurkeldieva, M.P.Hamidova, L.Sh.Nurmuhamedovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maxsus ta’lim muassasalarida olib boriluvchi ta’lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etish hamda takomillashtirishga qaratilgan. D.A.Nurkeldieva aqliy rivojlanishida muammolari bo’lgan bolalarni maktabga tayyorlash muammolarini hal etishda nutq o’stirish ustida olib boriluvchi ishlar muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Muallif intellekti buzilgan bolalar uchun xarakterli bo’lgan bosh miya po’stloqlarining diffuzli jarohatlari ularga atrofdegilar nutqini zarur darajada mustaqil ravishda tushunishga imkon bermasligini ko’rsatdi. Muallifning fikricha, bolaning atrofdegilar nutqini tushunishi uchun uning psixikasi va nutqi etarli darajada rivojlangan bo’lishi lozim. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish doimo muloqotda bo’lish, bolaning tevarak-atrofdagi ob’ektlar bilan tanishishi jarayonida amalga oshiriladi. Aqli zaif o’quvchilar nutqida, gap tuzishlarida ham qiyinchiliklar kuzatiladi. Tuzgan gaplari sodda bo’lib, so’zlarning o’zaro moslashuvida ko’plab xatolar uchraydi, murakkab bog’lanishli gaplar juda kam qo’llaniladi. Aqli zaif bolalar tovush va so’zlarni aniq va to’g’ri talaffuz eta olmaydilar, rasmga qarab gap tuzishga qiynaladilar, o’qituvchi yordamidan to’g’ri foydalana olmaydilar. Ertak va hikoyalarni tinglash, mazmunini tushunish darajasi ham talabga javob bermaydi. Eshitgan kichik ertak va hikoyani so’zlab berishga ham ancha qiynaladilar, ular alohida so’zlarni eslab aytadilar.

To’g’ri tuzilgan gaplar asosida hikoyani so’zlab bera olmaydilar. M.P.Hamidova aqliy rivojlanishida muammolari bor bolalar nutqidagi muammolarni bartaraf etish va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ish turlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi<sup>2</sup>. Aqli zaif bolalar tevarakatrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha tarzda so’zlab berishga ham qiynaladilar. O’qituvchi topshirig’i bilan hayotiy mavzular bo’yicha qisqacha hikoyalar tuzish topshirig’ini ko’pchilik bolalar bajara olmaydilar. Maxsus maktab o’quvchilarining ko’pchiligi kattalar va o’rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etmaydilar, savollarga qisqacha «ha» yoki «yo’q» deb javob beradilar, suhbat chog’ida gaplardan deyarli foydalana olmaydilar. Ular tomonidan alohida so’zlar, imo-ishora,

«anaqa» kabi soʻzlar koʻp ishlatiladi. Berilgan savollarga toʻgʻri, toʻliq tuzilgan gap orqali javob berish juda kam uchraydi. Aqli zaif bolalarning tafakkuri, fonetik eshitishi, analiz va sintez qilish malakalari, koʻrish idroki, fazoviy idroki yaxshi rivojlanmaganligi, nutqdagi sirgʻaluvchi va sonor tovushlarning notoʻgʻri talaffuz etilishi yoki umuman talaffuz etilmasligi kabi kamchiliklarning keng tarqalganligi bilan birga, nutqning leksik va grammatik tomonlari rivojlanmaganligi ham yaqqol namoyon boʻladi. Bogʻlangan nutqning rivojlanishida vaziyatli rasmga qarab gap tuzish, birlikdagi otlarni koʻplikdagi otlarga aylantirish, otlarning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qilish, berilgan namunaga qarab gap tuzish qobiliyati ham shakllanmagan boʻladi. Aqli zaif bolalarning mustaqil nutqini kuzatish shuni koʻrsatadiki, ular syujetli rasm asosida hikoya tuzish, koʻrgan narsalarini gapirib berish, ular uchun oʻqib berilgan matnni soʻzlab berish, oʻz koʻrgan va boshlaridan kechirganlarini izchillik bilan bayon etib berish kabi topshiriqlarni juda katta qiyinchilik bilan bajaradilar. Aqli

Aqli zaif bolalar ogʻzaki nutqidagi barcha nuqsonlar ularni oʻqitish jarayonida qiyinchilik tugʻdiradi. Maxsus maktabda taʼlim jarayoni aqli zaif oʻquvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, uning orqada qolishiga olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatish, engillashtirish, korreksiya qilishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Turli sabablarga koʻra, sinfdagi frontal ishdan orqada qolgan, ulgurmovchi oʻquvchilarga logopedik yordam koʻrsatish orqali ular dastur talablariga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega boʻladilar. Maxsus maktablarda ham, xuddi umumtaʼlim oʻrta maktablaridagidek, «Soʻz turkumlari» mavzusini oʻrganishga tayyorgarlik 2-sinfdan boshlanadi. Oʻquvchilar narsa va shaxs nomini bildirgan soʻzlar – «kim?», «nima?» soʻrogʻiga javob beradigan soʻzlar bilan tanishib, narsa, belgi, harakat kabi tushunchalarni oʻzlashtiradilar. Xuddi shu tushunchalar 3-sinfdan mustahkamlanib, 4-sinfdan kengroq tushunchalar bilan mustahkamlanadi. Keyingi sinflarda esa aqli zaif bolalar nutqida grammatikaga doir tushunchalarning murakkabroq shakllari qoʻllanilishini kuzatish mumkin boʻladi. Ular oʻz nutqlarida otlarni kelishik va egalik qoʻshimchalari bilan birga qoʻllab ishlatadilar. Shuningdek, aytib oʻtish kerakki, grammatik tushunchalarni oʻrganish davomida aqli zaif bolalar oʻzlashtirgan bilimlarini notoʻgʻri holatlarda ishlatishlari (avtomatik tarzda) kuzatiladi. Ular otlarga kelishik qoʻshimchalarini qoʻshib (turlab) ishlatishlarida kelishiklarning talaffuz va yozilishi jihatidan oʻxshash qoʻshimchalarini almashtirib ishlatadilar; masalan, oʻrin-payt kelishigining qoʻshimchasi oʻrniga chiqish kelishigining qoʻshimchasini, qaratqich kelishigining qoʻshimchasi oʻrniga tushum kelishigining qoʻshimchasini, joʻnalish kelishigining qoʻshimchalarini oʻzaro bir-biri bilan notoʻgʻri almashtirishlari kuzatiladi. Aqli zaif bolalardagi shartli refleks faoliyatida, qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining oʻzaro munosabatida hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimining oʻzaro aloqasida buzilishlar kuzatilishi, bularning hammasi fiziologik asoslar va mexanizmlar zahirida bola ruhiy faoliyatining buzilishiga olib kelishi koʻrsatib oʻtilgan. Adabiyotlar sharhi, maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlarga qaramay, respublikamizda aqliy rivojlanishida muammolari bor bolalar nutqini keng qamrovli oʻrganishning muayyan rejasi ishlab chiqilmaganligi, bu esa, oʻz navbatida, bunday bolalarga erta korreksion yordam koʻrsatishning toʻgʻri tashkil etilishiga jiddiy toʻsiq boʻlayotganligini koʻrsatdi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini oʻstirish bilan bogʻliq masalalar maxsus bogʻchalarning korreksion-pedagogik ishining markazida turadi va maktabda ona tilini oʻqitishning asosini tashkil qiladi. Aqli zaif bolalarga maxsus

ta’lim-tarbiya berilganda, ularda faqat oddiy malaka va ko’nikma xosil bo’libgina qolmay, balki ma’lumotlarni ongli ravishda eslab qolish, umumlashtirish, taqqoslash kabi aqliy faoliyat malakalari ham o’zlashtirib boriladi. Garchi bu jarayon aqli zaif bolalarda qiyin kechsa-da, maxsus ta’sir etish tufayli bu toifadagi bolalarning kamolotiga muhim ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini o’stirishga alohida ahamiyat beriladi. Olib borilgan kuzatishlar va izlanishlar natijasida hayotining dastlabki oylarida bolaning kattalar bilan muloqotga kirishuvi uning faolligini oshiradi, hissiyotini boyitadi va bilish faoliyati uchun zarur bo’lgan holatlar (qo’llar harakati va nutq) rivojlanishiga imkon yaratadi, degan xulosalarga keldik. Bu holat shuni o’zida ifodalaydiki, birinchidan, dastlabki yarim yillik hayoti chog’ida yaxshi tashkil etilgan hissiy muloqot mavjud bo’lsa, bolalar bilishda yuqori faollikni namoyon etishi mumkin, ikkinchidan, ular bunday muloqotga kirishmagan tengdoshlaridan ma’lum darajada o’zib ketadilar. Yuqorida ko’rsatilgan omillardan ko’rinib turibdiki, bolalarning maktabgacha tarbiya davrida kattalar bilan muloqotga kirishishga intilishini to’g’ri yo’naltirmoq zarur. Aqli zaif bolalarning barcha toifalari uchun nutqiy faoliyatning buzilishi umumiy xususiyat hisoblanadi. Nutqiy o’sishdagi etishmovchilik aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqotini cheklab qo’yadi. Bu, o’z navbatida, bilish, so’z bilan uyg’unlashgan axborot olishni ma’lum ma’noda o’sishdan to’xtatib qo’yadi.

Aqli zaif bolalar nutqini o’stirish qiyin kechsa-da, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta’lim asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham aqli zaif bolalar nutqini o’rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolalarda nutqning o’sishiga yordam beradigan vositalarni yoki uning orqada qolish sababini aniqlash bu jarayonga muvofiq pedagogik ta’sirni tashkil etishning kaliti bo’lib xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, so’z boyligining kambag’alligi aqli zaif bolalarda nutqning grammatik qurilishini o’z vaqtida egallashga to’sqinlik qiladi. Aqli zaif bolalar jumlar tuzish uchun kerakli so’zlarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda so’zlar ma’nosini tushunish shakldan mazmunga tomon ko’rinishda vujudga keladi. Bunday bolalarda so’zlarning mazmunini o’zlashtirish jarayoni juda uzoq muddatni talab qiladi. Ularning mazmunga mos so’zlarni tanlashi va o’z fikrini ifoda qilishi tengdoshlarinikiga qaraganda o’zgacha kechadi. O’quvchilar til materiallarini tahlil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, asosiylarini ajratishga o’rganadilar. Materialni analiz va sintez qilish, guruhlash va umumlashtirish, o’xshash va farqli tomonlarni topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalga tatbiq etish kabi ongli aqliy jarayonlar bolaning umumiy rivojlanishini ta’minlaydi, nutqiy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi. Ona tili va yozuv darslarida o’qituvchi bolalarni til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o’qish, kitob yoki doskadan, kartochkalardan ko’chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib yozish, o’rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va yozilganlarini tekshirish, ko’rgan-kechirganlarini, o’z taassurotlarini og’zaki va yozma shaklda bayon etishga o’rgatadi. Aqli zaif o’quvchilarda nutqning grammatik qurilishini rivojlantirish jarayonida har bir o’qituvchi aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi, mavjud nuqsonlarni korreksiyalashi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirib borishi kerak. Ona tili darslarida aqli zaif o’quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish, shakllangan tushunchalarni amalda qo’llay olish malaka va ko’nikmalarini tarbiyalash jarayoni uzoq vaqtga mo’ljallangan bo’lishi, oddiydan murakkabga qarab borishi, izchillilik tamoyillari asosida tashkil etilishi, tizimli ravishda mustahkamlanib va

takrorlanib borilishi lozim. O‘qituvchining bayonidagi u yoki bu holatlarni yaqqol ko‘rsatuvchi ko‘rgazmali vositalardan bolalarni amaliy, ko‘rgazmaliobrazli, keyin esa tushunchalarga oid umumlashmalarga ham yondashtirishdagi real negizini tanlash uchun ko‘proq darajada foydalanish maqsadga muvofiq. Suhbat usulidan foydalanish (ayniqsa, maxsus maktabda o‘qitishning boshlang‘ich bosqichlarida) shu ma’noda modifikatsiyalanadiki, undan foydalanish jarayonida yozma (yozuvli) va nutqsiz (ko‘rgazmali) tayanchlar kiritilishi ko‘proq darajada kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z savollari, tushuntirishlarining til materialini qat’iy tartibga solib boradilar, o‘z nutqlarining o‘quvchilar tomonidan qabul etilishini nazorat qilish uchun shart-sharoit yaratadilar. Ommaviy maktabning boshlang‘ich sinflarida grammatik yoki leksikaviy o‘yinlardan foydalanish mashg‘ulotlarni xilma-xillashtirishga, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishga, qiziqarli elementlarni kiritishga xizmat qilishi kerak bo‘lsa, maxsus maktabda ushbu o‘yinlar, birinchi navbatda, nutq faoliyati motivlarini shakllantirishning samarali usuli bo‘lib xizmat qila oladi. Bundan tashqari, o‘yinlar nutq amaliyotini kengaytirishga, so‘zlarning ma’nolarini, so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglashga qaratilishi mumkin. Maxsus maktabda o‘qitishda foydalanilgan metodlarni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: nutqni shakllantirish va korreksiyalash uchun foydalaniladigan usullar va ommaviy maktabdagi usullar bilan bir xil bo‘lgan, grammatika, fonetika, imloni o‘rganish uchun foydalaniladigan usullar. Mazkur usullar o‘qituvchining til o‘qitishning turli vazifalarini hal qilishga tabaqalashtirib (turlicha) yondashishiga yordam beradi. Masalan, u yoki bu usulning aniq o‘qitish vositalari bilan bog‘lanishiga ko‘ra usullarni guruhlarga ajratamiz: ko‘rgazmali (namoyish qilish, kuzatish, ekskursiyalar o‘tkazish), so‘zlashuv (suhbat o‘tkazish, tushuntirish, darslik materialini o‘qish va hokazolar) hamda «aralash» usullar (ko‘rgazmali-so‘zli usullar: kuzatishlar va ularga oid o‘qituvchining tushuntirishlari, rasm bo‘yicha suhbat olib borish va hokazolar). Tilning grammatik qurilishini shakllantirish darslari oldindan tayyorlangan leksik material asosida o‘tkazilishi, lekin aniq dars materialiga kiritilgan leksikaning tushunilishini darsning boshida tekshirish kerak. O‘qituvchi bolalar leksikani tushunishlarini mashg‘ulotning davomida ham, shu jumladan, o‘quvchilarning gap o‘ylab topishlari, misollar tanlashlari paytida ham nazorat qilib borishi lozim. Amaliy grammatika darslarining bosh vazifasi o‘quvchilarni umumlashmalarga olib kelish asosida tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat bo‘lganligi sababli, ularga qiyoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanib bajariladigan turli mashqlar kiritilishi yaxshi samara beradi. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlashlarida negiz bo‘ladigan yaxlit vaziyatlarni yuzaga keltirish amaliy grammatika darslarida foydalaniladigan tipik usuldir. Ularning echimi amaliy ijrosi shakllantirilgan tasavvurlar va tushunchalarning aniqligi, zamonga, makonga oid va boshqa belgilarning to‘g‘ri farqlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu mashqlarning barchasi o‘xshatish asosida tuzish bilan bir qatorda o‘quvchilarning tuzilma (so‘z, kontekst)ni tahlil qilishdan iborat bo‘lgan harakatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha bunday mashqlar shaklan konstruktiv bo‘ladi, lekin ularga qo‘shimcha ravishda shunday topshiriq beriladiki, uni bajarishda tahliliy tuzdagi vazifa hal qilinadi. Aqli zaif bolalar nutqini grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish jarayonining natijasida maxsus maktabda ona tili ta’limi, umuman, samarali ta’lim olish ta’minlanadi. Aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanish darajalari haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Bu esa, o‘z navbatida, ushbu bolalar bilan korreksion-kompensator-rivojlantiruvchi tavsifga ega ish tizimini tashkil etish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Aqli zaif bolalar ijtimoiy hayotga uyg‘unlashuvining asosiy omili sifatida nutq rivojlanish darajasining tanlanishi pedagogik jarayon istiqbolini belgilash imkonini beradi. Nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tizim maxsus tashkil etilgan muloqot-predmetli-rivojlantiruvchi muhit sharoitidagina amalga oshirilishi zarurligini isbotladi. Korreksion-kompensator hamda rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarga differensial (tabaqalashtirilgan) va yakka tartibda yondashish zarur. Aqli zaif bolalarlarning ijodiy faoliyati, qiziqishi va dunyoqarashini rivojlantirish ustida ish olib borish ular nutqini shakllantirishning muhim omili ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Aqli zaif bolalar nutqini boyitish, uni amaliy egallashlarining imkonini beruvchi yaxlit korreksion-rivojlantiruvchi jarayon pedagog va tarbiyachilar tomonidan puxta ishlab chiqilgan rejaga asoslangan (loyihalashtirilgan) holda, maqsadi hamda tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish choratadbirlari aniq belgilanishi asosida tashkil etilishi lozimligi aniqlandi. Ishda nutqni shakllantirishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarning pedagoglar ko‘magida oilada davom ettirilishi aqli zaif bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy hayotga erta uyg‘unlashuvining zaruriy sharti ekanligi isbotlab berildi. Maxsus

Maxsus maktab-internatlar qoshidagi maktabgacha tarbiya guruhlarida olib boriluvchi nutqni rivojlantirish jarayonida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinib, yakka-yo‘naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinishi, bu toifa bolalar ta’lim-tarbiyasini amalga oshirish, takomillashtirish muammolarini hal qilishda nutqni reja asosida shakllantirish jarayoni markaziy o‘rinni egallashi lozim. Nutqning yaxlit jarayon sifatida shakllanishi uchun bolalar tomonidan nutqiy faoliyatning turli ko‘rinishlari: atrofni eshitish-ko‘rish va eshitish, gapirish, o‘qish, yozish vositasida idrok etishning o‘zlashtirilishini nazarda tutgan holda ish ko‘rish lozim. Bolalarning so‘zlashuv nutqini jonli muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishida so‘zlashuv muloqotiga ehtiyojni yuzaga keltiruvchi ish shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Aqli zaif bolalarning nutqiy va ruhiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda korreksion-rivojlantiruvchi tizimni takomillashtirishda asos bo‘luvchi muqobil dastur va texnologiyalar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish lozim. Maxsus maktab-internatlar qoshidagi maktabgacha tarbiya guruhlari pedagoglarining ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini takomillashtirishga erishish lozim. Aqli zaif bolalarning ota-onalari uchun farzandlarining ijtimoiy hayotga moslashuvi, sog‘lig‘i va rivojlanishiga oid mavzulardagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, ular o‘rtasida bolalarning ijtimoiy moslashuvi, nutqiy rivojlanishi haqida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Рубинштейн С.Я. Психология умственно отсталого школьника. – М.: «Просвещение», 1986. – С. 73.
- 2.Войлокова Е.Ф. Особенности использования слов-названий сенсорных эталонов дошкольниками с выраженной умственной отсталостью. // Теоретические и прикладные проблемы образования лиц с интеллектуальной недостаточностью. Санкт-Петербург: Изд. РГПУ им.А.И.Герцена,2000.С.38–40.
- 3.Лисина М.И. Проблема онтогенеза общения.М.: «Просвещение»,1986. –С. 143.
- 4.Логопедия. Под ред.Л.С.Волковой., С.Н. Шаховской.М.«Владос»,2003.С. 46.

5.S.To‘ychiyeva. Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Darslik. Toshkent - 2020. 122-bet

6.Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT - Toshkent: 2005. 22-bet

7.S.To‘ychiyeva. Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Darslik Toshkent - 2020.92-101